



# BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



Научный вестник Бухарского государственного университета  
Scientific reports of Bukhara State University

3/2024

E-ISSN 2181-1466




9 772181 146004

ISSN 2181-6875



9 772181 687004



3/2024

<b>Саидова Н.З.</b>	Знаки и символы в повести Т.Пулатова «Окликни меня в лесу»: глубинный анализ	<b>206</b>
<b>Qosimova N.F., Haydarova G.R.</b>	Tarjima sifatini oshirishda tarjima strategiyalarining roli	<b>211</b>
<b>MATNSHUNOSLIK VA MANBASHUNOSLIK *** TEXTOTOLOGY AND LITERARY SOURCE STUDY *** ТЕКСТОЛОГИЯ И ЛИТЕРАТУРНОЕ ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ</b>		
<b>Latipova S.A.</b>	“Me’rojnoma’yi turkiy” – ilmiy-adabiy manba sifatida	<b>215</b>
<b>“NAVOIY GULSHANI”</b>		
<b>Bekova N.J., Gulliyeva N.Z.</b>	Navoiyning forsiy va turkiy she’riyatida irfoniy g’oyalarning badiiy talqinlaridagi o’xshashlik	<b>219</b>
<b>FALSAFA VA HUQUQ, SIYOSATSHUNOSLIK *** PHILOSOPHY, LAW AND POLITICAL SCIENCES *** ФИЛОСОФИЯ, ПРАВО И ПОЛИТОЛОГИЯ</b>		
<b>Niyozov A.K., Baxranova D.A.</b>	Tanqidiy fikrlash g’oyasining etimologiyasi va kelib chiqishi	<b>225</b>
<b>Sadullaeva M.A.</b>	Number as the essence of things: Pythagorean philosophy	<b>229</b>
<b>Muydinov D.N.</b>	Yevropada irqchilik va ksenofobiyaning ortishi sabablari va oqibatlari	<b>233</b>
<b>Селюгина К.В.</b>	Некоторые особенности нарциссических защит у релокантов из России в Республике Кыргызстан	<b>240</b>
<b>Саъдуллаев Ж. Н.</b>	Жиноят процессида гувоҳ иштирокининг процессуал жиҳатлари	<b>247</b>
<b>Сойибов Ф. Ф.</b>	Эксперимент тергов ҳаракатининг процессуал жиҳатлари	<b>252</b>
<b>TARIX *** HISTORY *** ИСТОРИЯ</b>		
<b>Ergashov Z.B., Yakubov R.Y., Sultonov Z.N.</b>	Birinchi Rennesans davrida qomusiy allomalarimizning ilmiy faoliyati	<b>260</b>
<b>Mamadjonov A.B.</b>	O‘zbekiston Turkiya munosabatlarida yangicha nuqtayi nazar	<b>265</b>
<b>Mubinov M.A.</b>	The brief review of works by English-speaking authors on the history of the Bukhara Emirate	<b>270</b>
<b>Umarov B.B.</b>	Buxoro shahrining somoniylar davridagi tarixiga oid manbalar tahlili	<b>274</b>
<b>Таирова М.Х.</b>	Истоки фармацевтики и её основатели	<b>279</b>
<b>Abdullaeva D.A.</b>	XX asrning 20-40-yillarida Ark qo‘rg‘onining ta’miralanish tarixi	<b>285</b>
<b>Жуманиязов И.Р.</b>	Қорақалпоғистонга чанг чолғу асбобининг кириб келиши ва ривожланиши	<b>289</b>

*Abdullaeva Dilfuza Abduljalilovna,*

*Buxoro davlat universiteti*

*Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrası o‘qituvchisi  
dilfuza\_abdullayeva 2023@mail.ru*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada XX asrning 20-40-yillarida Buxorodagi Ark qo‘rg‘onining ahvoli, uni saqlash, ta‘mirlash hamda muhofaza qilish masalasi maxsus muassasa va tashkilotlar faoliyatiga doir hujjatlar asosida yoritiladi. Shuningdek, obidaning muhofazasi va ta‘mirlanishi bo‘yicha tashkil etilgan ekspeditsiyalar va ularning ahamiyati hamda mazkur davrda ta‘mirlash ishlarining o‘ziga xos jihatlari, qolaversa, yodgorlikka bo‘lgan munosabat xususida ma‘lumotlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** Ark, “Tarixi anjuman”, ko‘rinishxona, qo‘shbegi hovlisi, salomxona, topografiya, Turkkomstaris, Sredazkomstaris, Uzkomstaris, M.E.Masson, ta‘mirlash, arxitektor, fotofiksatsiya, hududiy vakil.

### ИСТОРИЯ РЕСТАВРАЦИОННЫХ РАБОТ В КРЕПОСТИ АРК В 20-40-БЫХ ГОДАХ XX ВЕКА

**Аннотация.** В данной статье на основе документов, связанных с деятельностью специальных учреждений и организаций, освещено состояние крепости Арк в Бухаре в 20-40-е годы XX века, её содержание, ремонт и охрана. Также приводится информация об экспедициях, организованных для охраны и ремонта памятника, и их значении, о специфике ремонтных работ в этот период, а также об отношении данному памятнику.

**Ключевые слова:** Арк, «Тарихи анжуман», тронный зал, двор Кушбеги, Саламхана, топография, Турккомстарис, Средазкомстарис, Узкомстарис, М.Э. Массон, реставрация, архитектор, фото фиксация, уполномоченный представитель

### HISTORY OF RESTORATION WORK IN THE ARK FORTRESS IN THE 20-40S OF THE XX CENTURY

**Abstract.** This article, based on documents related to the activities of special institutions and organizations, highlights the state of the Ark fortress in Bukhara in the 20-40s of the twentieth century, its maintenance, repair and protection. Information is also provided about expeditions organized to protect and repair the monument, and their significance, about the specifics of repair work during this period, as well as about the relationship to this monument

**Keywords:** Ark, “Tarixi anjuman”, Observatory, Koshbegi yard, Salomkhana, topography, Turkkomstaris, Sredazkomstaris, Uzkomstaris, M.E.Masson, renovation, architect, photofixation, regional representative.

**Kirish.** XX asrning 20-yillaridan boshlab ma‘muriy bino xarakteridagi hukmdor qarorgohlari ham ta‘mirlashga mas‘ul tashkilot va muassasalarning e‘tiborida bo‘lib kelgan. Bu amirlik hukumati ag‘darilgan ilk kunlardayoq qadimiy Ark qo‘rg‘onini o‘rganish, tadqiq qilish maqsadidagi urinishlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Dastlab, 1920-yil sentabrda Arxiv ishlari markaziy boshqarmasi (Suardel) hamda Turkkommissiya vakillari tomonidan Buxorodagi vaqtinchalik tayinlangan favqulodda komendantga Ark binosida izlanishlar olib borish uchun murojaat qilingan. Ruxsat olingach, D.I.Nechkin, V.V.Bartold, V.L.Vyatkin, A.E.Shmidt, P.E.Kuznetsov, E.B.Betger va A.A.Garritskiylar ishtirokida tuzilgan maxsus komissiya Arkdagi tarixiy ahamiyatga molik bino va buyumlarni o‘rganishga kirishadi[1].

**Dolzarbliqi.** Olimlar Buxoro arkining sharqiy, ikkinchi darvozasini o‘rnini aniqlash maqsadida yodgorlikni to‘liq ko‘zdan kechirishadi. Izlanishlar davomida, qal‘a devorlarining bir necha marotaba qayta tiklanganligi darvoza o‘rnini aniqlashga imkon bermaydi, degan xulosaga kelinadi. Shuningdek, akademik V.V.Bartold o‘z tadqiqotlarida, so‘nggi harbiy harakatlar oqibatida Ark qal‘asining tashqi devori va g‘arbiy darvozasi asl qiyofasini saqlab qolganligiga qaramasdan, ichki binolari vayronaga aylanganligi va qo‘rg‘onning 3/4 qismi yonib ketganligini ta‘kidlaydi[2].

**Metodlari.** Mazkur maqolada tarix fanida tadqiqotlar olib borishning muammoli-xronologik, obyektivlik, tuzilmaviy-tizimli tahlil metodlaridan foydalanilgan.

**Tadqiqot natijalari.** Abdurauf Fitrat, Muhammad Siddiq (Hashmat), Sayyid Muhammad Nosiruddinto‘ra, SHarifjon Mahdum (Sadr Ziyoy), Hoji Mullo Sayid Mahmud mufti, Mirza Salimbek kabi buxorolik ziyolilar tomonidan 1921-yilda tuzilgan ilmiy-akademik jamiyat – “Tarixi anjuman”ning ham Ark qo‘rg‘onida tadqiqotlar olib borish, uni tarixiy-etnografik, topografik jihatdan o‘rganishdagi salmoqli ko‘magi bu doiradagi ishlarning mantiqiy davomi bo‘ldi. Mazkur jamiyat faoliyati mahsuli bo‘lgan Sayyid Muhammad Nosiruddinto‘raning “Tahqiqoti Arki Buxoro” (“Buxoro Arki haqidagi tadqiqot”) asarida Ark qo‘rg‘oni va undagi barpo etilgan binolar tarixiga atroflicha to‘xtalib o‘tiladi. Nazarimizda, ushbu asar qarorgohning keyingi ta‘mir ishlari uchun zarur bo‘lgan muayyan nazariy xulosalarni yaxlitlashga ko‘maklashgan.

I.I.Umnyakov va muhandis M.M.Loginovlar tomonidan amalga oshirilgan 1924-yilgi Buxoro va Karmanaga uyushtirilgan ilmiy safar ham hukmdor qarorgohlari–saroylarning saqlanish holatini o‘rganishdagi navbatdagi sa‘y-harakat bo‘ldi. Tashrif davomida bu turdagi yodgorliklar ro‘yxatga olinib, ularning o‘lchov va fotofiksatsion ishlari amalga oshirilgan. 1925-yil 4-may sanasida Ark qo‘rg‘onining davlat muhofazasidagi me‘moriy yodgorliklar ro‘yxatiga kiritilishi mazkur sa‘y-harakatlarning amaliy natijasi bo‘ldi.

Keyinchalik, Sredazkomstarisning Qadimiy va san‘at yodgorliklarini muhofaza qilish bo‘limi tomonidan ham 1927-yilda Buxoro arkida arxeologik tadqiqot-qazuv ishlari olib boriladi. Tahlillar bunda qazuv ishlari va topografik tasvirlarni amalga oshirish uchun jami 1500 rubl mablag‘ ajratilganini ko‘rsatmoqda[3]. Natijada, O‘rta Osiyo harbiy okrugining topografiya bo‘limi bosh kartografi N.D.Moraiti, Shtab harbiy siyosiy bo‘lim boshlig‘i Karpekin, katta kartograflar V.F.Brede, P.S.Malinlar ishtirokida Arkning (masshtab: 10 m - 1 sm) 68000 m<sup>2</sup> maydondan iborat topografik xaritasi tuziladi[4].

Topografik izlanishlar jarayonida arxeolog M.E.Massonning qo‘shgan hissasi ham e‘tiborga molikdir. Olimning Sredazkomstarisga taqdim etgan hisoboti orqali uning topograflarga tasvirga olish joylari to‘g‘risida ko‘rsatmalar berganligi ma‘lum. M.E.Masson 1927-yil 27-iyundan 2-iyulgacha Buxoro shahrida ilmiy safarda bo‘lib, Ark hamda shahriston maydoni xususida ma‘lumotlar to‘playdi[5]. U keltirgan dalillar, Arkdagi Ko‘rinishxona hovlisidagi Tosh taxt hamda ayvon abgor holatda bo‘lganligini ko‘rsatadi.

O‘rganishlar natijasida, Ark qo‘rg‘oni 1924-yil dekabr oyiga qadar Buxoro viloyat Inqilobiy qo‘mitasining ma‘muriy binosi vazifasini bajarganligi ma‘lum bo‘ldi. Shu yilning 22-dekabr sanasida Turkkomstaris rahbari D.I.Nechkin O‘zbekiston SSR Inqilobiy qo‘mitasiga murojaat yo‘llaydi[6]. Unda Buxoro Arkining Turkkomstaris ixtiyoriga olinib, u erda muzey tashkil etilishi munosabati bilan Buxoro viloyat Inqilobiy qo‘mitasini binodan chiqarish kerakligi so‘ralgan.

Taassufki, Buxkomstaris tashkiloti faoliyatiga oid 1925-yilgi fotohujjatlar negativi Ark binosining deyarli butunlay vayronaga aylanganligini tasdiqlaydi[7]. Buxoro qurilish idorasi muhandisi F.O.Ratner, Buxoro viloyat ijroiya qo‘mitasi hisobchisi V.A.Dubnevich va Uzkomstarisning vakolatli vakili V.A.Shishkinlar tomonidan Ark qo‘rg‘oni xususida rasmiylashtirilgan dalolatnoma mazmunidan yodgorliklar muhofazasi borasida nooqilona yondashuv ularning vayrona holga kelib qolishini tezlashtiruvchi omil bo‘lgani ayon bo‘ladi. Unda 1929-yil 13-yanvarda amalga oshirilgan kuzatuv-ko‘rik natijasida Ark qo‘rg‘onidagi bir qancha binolar foydalanishga yaroqsiz deb topilib, buzilishi to‘g‘risida qaror qilinadi. Binolarning yarim aftoda holga kelib qolganligi, ta‘mirlash uchun katta mablag‘ talab qilinishi, qolaversa, eshik, derazalar va yog‘och ustunlarning o‘g‘irlanish hollari ko‘plab uchrayotganligi vajidan ularni qayta tiklash “...maqsadga muvofiq emas..”, deb topilgan[8]. Komissiya bunday binolarni ta‘mirlashdan ko‘ra, ularni buzib, qurilish xom ashyolarini Ko‘rinishxona hovlisini ta‘mirlashga yo‘naltirish, qolgan qismini sotib, tushgan mablag‘dan mazkur ta‘mir xarajatlarini qoplash taklifini ma‘qullaydi.

Shunga qaramay, mas‘ul tashkilot va muassasalar tomonidan obidalarni ilmiy o‘rganish va tadqiq etish ishlari davom ettirilgan. Jumladan, Uzkomstaris tavsiyasi asosida 1932-yilda Buxoro Arki va uning registon qismida arxeologik qazuv ishlari olib borildi. Qirq besh kun davom etgan tadqiqot ishlari natijasida obidaning qurilish tarixi bilan bog‘liq muhim ma‘lumotlar qo‘lga kiritilgan[9]. 1935-yilda esa Buxkomstaris tomonidan 5470 rubl 29 tiyin mablag‘ Ark ta‘miri uchun ajratiladi. Ta‘mir jarayoni muhandis V.Ivanov mas‘ulligida bajarilgan[10]. Buxkomstarisning 1935-yilgi hisobot hujjatlarida ta‘mirdan chiqarilgan Ark binosiga Shahar soveti va uning bo‘limlari joylashtirilgani to‘g‘risida ma‘lumotlar mavjud.

Qo‘mita tashabbusi bilan 1940-yilga kelib Buxorodagi yettita yodgorlikda jami 88.487 rubllik ta‘mirlash ishlari bajariladi. Bular orasida Ark qo‘rg‘oni ham mavjud bo‘lib, unda arxeolog S.K.Kabanov boshchiligida ishlar olib borilgan. 1941-yilda ham maxsus mablag‘lar asosida Arkdagi Ko‘rinishxonaning (Тронный зал) vayron bo‘lgan sharqiy devorini qayta tiklash, taxtning marmar ustunlarini tekislash va tom bezaklarini mustahkamlash kabi ishlar bajariladi.

## HISTORY

Yodgorliklarda zaruriy ta'mirlash ishlarini tashkil etilishi bilan tanishish, qolaversa, belgilangan ishlar va uning bajarilishini o'rganish maqsadida maxsus komissiyalarning tashkil etilishi ta'mirlash jarayonlari bilan bog'liq ahamiyatli jihat hisoblanadi. Misol tariqasida, Me'moriy yodgorliklarda 1944-yilda amalga oshirilgan kuzatuv-ko'rik natijasida, Ikkinchi jahon urushining dastlabki yillarida Buxoro Arki binosiga joylashtirilgan harbiy qismlar olib chiqilgach, yodgorlikka katta ziyon yetkazilganligi aniqlangan. Masalaga doir iqtisodiy hujjatlar ushbu zararining tegishli tartibda Viloyat ijroiya qo'mitasi tomonidan 260.000 rubl miqdoridagi ta'mirlash bilan qoplanganini ko'rsatadi [11]. 1944-yil oktabr oyiga qadar davom etgan ta'mirlash jarayoni birlamchi va eng zaruriy ishlar ko'lamidan iborat bo'ldi. Qolaversa, Buxoro o'lkashunoslik muzeyining Ark binosiga ko'chirilishi munosabati bilan hududiy vakil M.Ahmedov ko'rsatmasi bilan qo'shimcha moslashtiruvchi ta'mir ishlari ham olib borilgan. 1944-yil 24-dekabrda esa O'zbekiston SSR Vazirlar kengashining 1557-son qarori bilan Ark qo'rg'oni davlat muhofazasiga olinadi.

O'zbekiston SSR Vazirlar kengashi huzuridagi Arxitektura ishlari boshqarmasining Yodgorliklarni muhofaza etish bo'limi mudiri R.Abdurasulov tomonidan 1946-yil Ark qo'rg'onida ta'mirlash ishlarining borishi, belgilangan reja va uning bajarilishini o'rganish maqsadida arxitektor-inspektor A.S.Iskandaryan Buxoroga yuboriladi. O'n besh kunlik safar mobaynida A.S.Iskandaryan Ark qo'rg'onidagi ta'mir jarayoni, belgilangan hamda bajarilgan ishlarining mutanosibli, mablag' taqsimoti kabi masalalarni o'rganib chiqib, ijobiy xulosa beradi. Shunday mazmundagi amaliy tashrif 1948-ta'mir yili yakunlanganidan so'ng bajarilgan ishlar ko'lamini va sifatini tekshirish uchun Arxitektura ishlari boshqarmasi tomonidan yuborilgan muhandis Kupsov hisobotida ham namoyon bo'ladi. Bu mazkur yillarda yodgorlik muhofazasidagi mas'ul tashkilot va muassasalarda yuz bergan tashkiliy o'zgarishlarga qaramay, ta'mirlash va qayta tiklash jarayoni bir xil shaklda olib borilganini ko'rsatadi.

Biroq, bu o'zgarishlarning tashkiliy va nazariy masalalardagi muayyan ta'siri seziladi. Masalan, Uzkomstaris tugatilishi bilan tashkilot tomonidan qabul qilingan barcha yuridik hujjatlar qonuniy emas, deb hisoblangan. 1948-yil may oyida Yodgorliklar muhofazasi bo'limi mudiri V.N.Astraxanskiy Buxoro hududiy vakili L.R.Yusupovga Arkda joylashtirilgan muzeyning foydalanuvi uchun yangidan shartnoma imzolanishi kerakligi, Uzkomstaris bilan tuzilgan oldingi shartnoma huquqiy kuchga ega emasligi ta'kidlanadi. Shunday bo'lsa-da, ta'mir ishlarida uzilishlar yuz bermadi. Arxitektura boshqarmasi tomonidan 1948-1949-yillarda Ark qo'rg'oni atroflarida ko'kalamzorlashtirish ishlari rejalashtiriladi. Shu munosabat bilan 1948-yil iyulda Buxoro shahar Qurilish ishlari bo'limi belgilangan reja-chizmasi asosida Ark devoridan 10 metr uzoqlikda daraxtlar o'tqazish ishlarini boshlaydi.

Masalaga doir iqtisodiy hujjatlar mazkur yildan boshlab Arxitektura ishlari boshqarmasi tomonidan ta'mirlash uchun ajratiladigan mablag'lar Buxoro viloyat Ijroqo'm huzuridagi Arxitektura ishlari bo'limi hisobiga o'tkazila boshlanganini ko'rsatadi[12]. Tahlillardan, buning sababi Buxoro tarixiy o'lkashunoslik muzeyi tomonidan 1946-yilda Ark qo'rg'onidagi binolar – Qo'shbegi hovlisi, Salomxonona, Jome masjidi, Ko'rinishxonona kabilar hududiy vakil va Arxitektura ishlari boshqarmasining xabardorligisiz ta'mirlangani, 1948-yil aprel va may oylarida muzey ma'muriyati tomonidan Arkdagi tadqiqot-qazuv, o'lchov olish va qayta tiklash ishlariga ruxsat berilganligi kabi o'zbo'shimchaliklar, qolaversa, 1948-yilda Ark ko'rg'onini ta'mirlash uchun Arxitektura ishlar boshqarmasi tomonidan ajratilgan 160.000 rubl mablag'ning teng yarmi ishchilarning maoshi sifatida belgilanishi kabi noteng moliyaviy taqsimot singari hatti-harakatlar ekanligi ma'lum bo'ldi.

Me'moriy obidalarni qayta tiklash, ta'mirlash hamda ularning muhofazasiga mas'ul tashkilot va muassasalarning mazkur masalaga doir yozishmalarida Muzey ma'muriyatining javoban yo'llagan murojaati mulohaza yuritishga undaydi. *“...Arxitektura ishlari boshqarmasi hamda hududiy vakilning noroziliklariga javoban aytish mumkinki, Muzey ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishga haqli, qolaversa, xodimlar san'atshunos R.B.Kanskiy, arxeolog T.F.Gelax kabi mutaxassislarning salohiyati nafaqat Ark qo'rg'onida, balki butun o'lkada ham tadqiqot-qazuv, tekshiruv ishlarini olib borishga yetarli ekanligini ta'kidlaymiz...[13].*

Demak, XX asr 40-yillarining oxirida tarixiy yodgorliklar saqlovi va muhofazasida muzeyning roli ham oshib boradi. Shu davrdan boshlab Arkda joylashgan Buxoro tarixiy o'lkashunoslik muzeyida muayyan ilmiy muhit shakllanib, ta'mirlash jarayonlari bevosita muzey xodimlari ishtirokisiz amalga oshirilmaydi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Buxkomstarisning tashkilot sifatidagi faoliyati yakunlanganida uning yagona ilmiy yordamchi apparat fondini Toshkentga yo'naltirish taklifi ko'rib chiqiladi. Idoralararo munozaralar natijasida mazkur ilmiy fond bu davrga kelib ilmiy izlanishlar olib borish markaziga aylanib ulgurgan muassasa – viloyat muzeyiga topshiriladi. Undagi V.A.Shishkin, S.K.Kabanov, S.A.Sudakov kabilarning ilmiy faoliyat mahsullari, bir guruh noyob kitoblardan iborat kutubxonona, Buxoro tarixiy yodgorliklarining qisqacha sharhli ro'yxati (kartoteka) hamda ish yuritish hujjat namunalari, foto arxiv jamlanmasi kabi muhim manbalar Toshkent uchun Buxorodagidek zarur va qimmatli emasligi asoslangach,

## HISTORY

qoldirishga erishiladi. Bunga 1946-yil iyun va iyul oylarida Buxoro tarixiy o'lkashunoslik muzeyining vaqtinchalik direktori vazifasini bajaruvchi (aslida u ilmiy ishlar bo'yicha direktor muovini edi – D.A.) R.B.Kanskiyning Arxitektura ishlari boshqarmasi rahbari V.A.Jahongirov hamda Madaniyat va ma'rifat qo'mitasi raisi Tojievga (ismi hujjatlarda ko'rsatilmagan – D.A.) Buxkomstaris hujjatlarini muzey fondiga o'tkazish to'g'risida taqdim etgan talabnomasi asos sifatida xizmat qildi[14].

Buxkomstaris faoliyat natijasi bo'lgan hujjatlar jamlanmasi, qolaversa, arxeolog, arxitektor kabi mutaxassis-xodimlar jamoasining bir muassasada jamlanishi Buxoro tarixiy o'lkashunoslik muzeyining tarixiy yodgorliklarni ta'mirlash va tadqiq etishning yana bir markaziga aylanishini ta'minlay oldi.

**Xulosalar.** Yuqorida qayd etilgan ma'lumotlar tahlili asosida XX asrning 20-yillarida Ark qo'rg'oni saqlanish holatining o'rganilishi, uni ro'yxatga olish, o'lchov va fotofiksatsion ishlarni amalga oshirishga qaratilgan dastlabki urinishlar D.I.Nechkin, V.V.Bartold, V.L.Vyatkin, A.E.Shmidt, P.E.Kuznetsov, E.B.Betger va A.A.Garritskiy kabi mutaxassis-olimlar ishtirokidagi ilmiy ekspeditsiya, Turkkomstaris tashabbusi bilan 1924-yilda I.I.Umnyakov va muhandis M.M.Loginovlar, keyinchalik, Sredazkomstaris topshirig'i bilan 1927-yilda M.E.Masson ishtirokidagi ilmiy safarlar bilan bog'liq ekanligi, Ta'mirlash tashkilotlari faoliyatiga doir hujjatlarga asoslanib esa Ark qo'rg'oni 1924-yil dekabr oyiga qadar Buxoro viloyat Inqilobiy qo'mitasining ma'muriy binosi vazifasini bajargani, 1935-yilda Buxoro shahar soveti va uning bo'limlari uchun ajratilgani, Ikkinchi jahon urushining dastlabki yillarida esa unda harbiy qismlar joylashtirilgani, 1944-yilga kelib Buxoro viloyat o'lkashunoslik muzeyining Ark binosiga ko'chirilgani to'g'risidagi xulosalarga kelish o'rinlidir.

### ADABIYOTLAR:

1. *O'zbekiston Milliy arxivi (keying o'rinlarda – O'zbekiston MA), R-394-fond, 3-ro'yxat, 3-yig'majild, 21-22-varaqlar.*
2. *Бартольд В.В. Бухара. Её памятники и их судьба. Сочинения в 9-ти томах. -Т. IV. - М.: Наука, 1966. -С. 282.*
3. *O'zbekiston MA, R-394-fond, 1-ro'yxat, 266-yig'majild, 111-varaq.*
4. *O'zbekiston MA, R-394-fond, 1-ro'yxat, 214-yig'majild, 32-varaq.*
5. *O'zbekiston MA, R-394-fond, 1-ro'yxat, 214-yig'majild, 33,37-varaqlar.*
6. *O'zbekiston MA, R-394-fond, 1-ro'yxat, 93-yig'majild, 1-varaq.*
7. *Buxoro viloyat davlat arxivi(keying o'rinlarda – Buxoro VDA), 629-jamg'arma, 1-ro'yxat, 2-yig'majild, 1-varaq, 836-jamg'arma, 1-ro'yxat, 2-yig'majild, 4-varaq.*
8. *O'zbekiston MA, R-2296-fond, 1-ro'yxat, 9-yig'majild, 40-varaq.*
9. *O'zbekiston MA, R-2296-fond, 1-ro'yxat, 51-yig'majild, 20-varaq.*
10. *Ahmedova H. Qadimiy ark qayta yuz ochadi // Buxoro haqiqati, 1992 yil 28 noyabr.*
11. *O'zbekiston MA, R-2296-fond, 1-ro'yxat, 360-yig'majild, 136-138-varaqlar.*
12. *O'zbekiston MA, R-2296-fond, 1-ro'yxat, 360-yig'majild, 29-varaq.*
13. *O'zbekiston MA, R-2296-fond, 1-ro'yxat, 360-yig'majild, 76-varaq.*
14. *O'zbekiston MA, R-2296-fond, 1-ro'yxat, 360-yig'majild, 84-86 va 113-varaqlar.*